

PENITSILLINNING TA'SIR ETISH DOIRASI

**Jalilova Charos Shamsiddin qizi
Mavlonova Dilrabo Nizom qizi**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabaları

Annotatsiya: Ushbu maqolada penitsillining antibakterial doirasi, penitsilinazaga chidamliligi, bakteriya hujayralariga tasiri haqida, odam organizmidagi cassalliklarga qarshi qo'llanilishi va revmatizm kasalligining kelib chiqishi, revmatizm kasalligida penitsillining qanday qo'llanilishi to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mog'or zamburug'i, bakteriya, bitsillin – 1,3,5, fenoksimetilpenitsillin, streptokokk, penitsillinaza, penitsillin, revmatizm, betta gemolitik streptokokk, M oqsil.

Penitsillin kimyoviy tuzilishi bir biriga yaqin tabiiy va yarim sintetik antibiotiklar guruhi hisoblanadi. Tibbiyotda ilk bor penitsillin Penicillium turkumiga mansub zamburug'dan olingan. A. Fleming va ingliz patologi X. Flori mog'or zamburug'ining' bulon filtratidan penitsillinni ajratib oldi va uning yuqumli kasalliklarni davolashda samaradorligini kashf etganlari uchun Nobel mukofatiga sazovar bo'ldi.

Bugungi kunda tibbiyot sohasida penitsillining tabiiy va suniy turlaridan foydalilaniladi. Tabiiy penitsillinga benzilpenitsillining natriyli va kaliyli tuzi, bitsillin – 1,3,5, fenoksimetilopenitsillin kiradi. Suniy penitsilinlar antibakterial doirasi va penitsilinazaga chidamliligi jihatidan farqlanadi.

Penitsillining antibakterial tasir mexanizmi hujayra devori sintezining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, bunda peptidoglikan moddasini sintez qiluvchi reaksiya to'sib qo'yiladi. Shuning uchun penitsillin guruhi dorilari asosan o'suvchi bakteriya hujayralariga tasir qiladi.

Tabiiy penitsillining suniy penitsillinga qaraganda tasir doirasi tor. Tabiiy penitsillin stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk, gonokokk, meningokokk, gazli gangrena, qoqshol, botulizm, kuydirgi, defteriya, zaxm cassalliklarining qo'zg'atuvchilariga juda faol tasir etadi. Shu sababli penitsillindan pnevmoniya, septik endokardid, revmatizm, jarohatlanish oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar, saramas, peritonit, sistit, osteomeyelit, defteriya, skarlatena va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Revmatizm kasalligi biriktiruvchi to'qimaning keng tarqalgan yallig'lanish kasalligi hisoblanadi. Bu kasallikda asosan yurak va bo'g'imlar va boshqa a'zolar yallig'lanadi. Revmatizmnining faol davrida streptokokk infeksiyasini

yo'qotish uchun antibiotiklar asosan penitsellin va yarim suniy penitsillinlar: ampitsillin, oksatsillin, mitetsillin qo'llaniladi. Revmatizm kasalligini qo'zg'atuvchisi A tipdagi betta gemolitik streptokokk hisoblanadi, bu streptokokk bakteriyasida o'ziga xos tuzilgan M-oqsilli qismi ham mavjud bo'ladi. Bu kasallik asosan yosh bolalarda ko'proq holatlarda qizlarda uchraydi. Betta gemolitik streptokokk bakteriyasi odam organizmiga tushganida tonsillit yoki faringit kasalligini keltirib chiqaradi. Betta gemolitik streptokokk tomoq hujayralari membranasiga zarar yetkazib, tomoqda yallig'lanishni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda odam organizmida immun himoya sistemasi orqali makrofag va neytrofillar ishlab chiqariladi. Makrofag va neytröfillar tomoqda yallig'lanishni keltirib chiqargan betta gemolitik streptokokkni parchalab tashlaydi, ammo betta gemolitik streptokokkning M-oqsili parchalanmay qoladi. Odam organizmidagi antitana antitoksinlar M-oqsili parchalash qobiliyatiga ega. Sog'lom odam tanasida mana shu jarayonlar ro'y berishi sababli organizmga tushgan zararli bakteriya, ya'ni betta gemolitik streptokokk butunlay parchalab yuboriladi. Ammo yer yuzidagi 1-3% odamlarda irsiy moyillik sababli bu jarayon boshqacha sodir bo'ladi. Bunday odamlarda irsiy moyillik sababli yurak, teri, bo'g'im, miya hujayralarida mimikriya hodisasi ro'y berib, bu azolarning hujayralari betta gemolitik streptokokkning M-oqsilli qismiga o'xshab qoladi. Natijada organizmning immun himoya sistemasi, yani antinana antitoksinlar M-oqsili bilan birgalikda organizm o'zidagi hujayralariga ham qarshi kurasha boshlaydi. Shuning uchun bu kasallik avtoimmun kasallik deb nomlanadi. Bu kasallikning o'tkir davrida biz penitsillining yarim suniy turlaridan foydalananib davolash choralarini olib borishimiz mumkun. Bu kasallikning uyqu davrida esa penitsillining tabiiy turi bo'lgan bitsillin- 1,3,5 qo'llaniladi.

Ushbu maqolada penitsilin antibiotigining antibakterial ta'sir doirasi, bakteriyalar devoriga ta'sir qilishi, tabiiy va suniy turlari, revmatizm kasalligining rivojlanishi va bu kasallikka qarshi penitsillin va uning turlarining qo'llanilishi haqida malumot olish mumkun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005
2. SamDTU mt.samu.uz platformasi
3. <https://www.youtube.com/@imedteam>
4. Umumiylik mikrobiologiya A.B. G'anixo'jayeva, H.A. Nazarova "Ilm ziyo" 2017